



**O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**



**DENOV
TADBIRKORLIK
VA PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

AXBOROT XATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 28-avgust kuni maktablarda ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchi o‘rnini ko‘paytirish va o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselekt yig‘ilishi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi PQ-53-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 24-martdagi 76-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan 2024-yilda mamlakatimizda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy hamda ilmiy-texnik anjumanlar rejasiga muvofiq 2024-yilning 18-sentabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida **“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni”** mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani bo‘lib o‘tadi.

Konferensiya maqsadi: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishda mamlakatimiz umumiy o‘rta ta’lim maktablarida xorijiy ilg‘or tajribalarni qo‘llash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tutgan o‘rnini davr talabi darajasiga olib chiqish, shuningdek, umumiy o‘rta ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’lim sifatini oshirishga erishish

Anjumanda quyidagi sho‘balar faoliyat yuritadi:

1-sho‘ba: Umumiy o‘rta ta’lim va oliy ta’lim integratsiyalashuvi hamda xorij tajribasi

2-sho‘ba: Boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi pedagogik texnologiyalar tatbiqi

3-sho‘ba: Ilm-fan, madaniyat va innovatsiyalar orqali boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish

4-sho‘ba: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim va tarbiya berishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari

Anjuman ishida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimlaridagi ilmiy-tadqiqot muassasalari, quyi bo‘g‘in tashkilotlari, umumta’lim muassasalari, Oliy ta’lim muassasalari, ilmiy tadqiqot institutlari, tizim xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari professor-o‘qituvchilari va mutaxassislari, tayanch doktorantlar, doktorantlar, magistrlar, iqtidorli talaba-yoshlar, mustaqil izlanuvchilar, ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan soha mutaxassislari ishtirok etishlari mumkin.

Anjumanda o‘zbek, rus, ingliz va tojik tillarida yozilgan tezis va maqolalarni taqdim etish orqali ishtirok etish mumkin.

Konferensiyaga taqdim etilayotgan ilmiy maqolalarga qo‘yiladigan talablar va rasmiylashtirish tartibi:

- maqola va tezislar hajmi 3-6 bet to‘liq hajmda, Microsoft Word muharririda, matnlar Times New Roman, 14 shriftda, 1,5 intervalda, sahifaning barcha tomonlaridan 2 sm qoldirilgan holda tayyorlanishi lozim.

Fayl nomlari muallifning familiyasi hamda sho‘ba raqami bilan nomlanishi maqsadga muvofiq (masalan; S.Do‘stov 4-sho‘ba).

- maqola va tezis mavzusi bosh harflarda (14 shriftda) o‘rtaga yozilib, keyingi satrda muallif(lar) ism-sharifi, ish joyi, ilmiy darajasi yoki ilmiy unvoni, telefon raqami, elektron manzili (agar mavjud bo‘lsa keltiradi). Undan keyin 1,5 interval pastda annotatsiya, kalit so‘z yoziladi. Kalit so‘zlardan keyin 1,5 intervalda xat boshidan tezis matni, so‘ng matn xulosasi, undan so‘ng pastda adabiyotlar keltiriladi;

- foydalanilgan adabiyotlar tezis oxirida alifbo tartibida keltiriladi;

- tezis va maqolalar elektron nusxada topshiriladi;

- konferensiya materiallari elektron va bosma to‘plam holda chop etiladi.

Maqola va tezisdagi ma’lumotlar, faktlar va statistikalarining to‘g‘riligiga mualliflar mas’uldir. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tashkiliy qo‘mita tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va to‘plamga kiritilmaydi.

Muallif(lar)ning familiya, ismi va sharifi, ish joyi, egallab turgan lavozimi va telefon raqami, elektron manzili ko‘rsatilgan holda konferensiya materiallari elektron 2024-yilning 18-sentabrga qadar quyidagi telefon raqamdagi telegramm akkaunti orqali qabul qilinadi: +998(99)083-74-91, @Ustoz2504, Sunnatullo Rahmon.

Tezis va maqolalarni chop etish xarajatlari 1ta maqola yoki tezis uchun 100000 (yuz ming) so‘mni tashkil etadi, talabalarga esa 1ta maqola yoki tezis uchun 60000(oltmish ming) so‘m badal puli mavjud. Xalqaro va chet el fuqarolari, xorijiy professor-o‘qituvchilar tomonidan yuborilgan ishlar uchun badal to‘lovi mutlaqo talab etilmaydi.

To‘lovni quyidagi plastik karta raqami orqali amalga oshirish mumkin (9860 1201 6026 5803 HUMO, SUNATULLO DUSTOV DTPI).

Anjuman o‘tkazish uchun mas’ul: “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrası

Konferensiya o‘tkaziladigan joy: Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida joylashgan Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Yoshlar markazi binosi

O‘zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani “Gulobod” MFY, Istiqlol ko‘chasi 49-uy manzilida joylashgan Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 3-o‘quv binosining anjumanlar zali

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI TA'LIMINING
UMUMIY MASALALARINI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA KENGAYTIRIB ISHLAB CHIQISH**

Do'stov Sunnatullo Rahmonovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, o'qituvchi

tel:+998 (99) 083-74-91

E-mail: sdustov@dtpi.uz

[illegible]

Kalit so‘z: matn; matn; matn; matn; matn; matn; matn.

Matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn,
matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn [1]
matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn
matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn [2].

Matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn
matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn
matn, matn matn [3], matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn,
matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn.

Xulosa: matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn, matn matn.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hamedova N., Ibragimova Z., Asetov T. “Matematika”. Darslik. T.:“ILM ZIYO”, 2007.
2. Джумаев М.Е., Сиделникова Р.И., Садикова А.В. «Методика преподавания математики», Т.: Турон-Икбол», 2011
3.